

BIOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING INDIVIDUAL FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Mamlakat Umarova Mirzaliyvna

TDSI akademik litsey

Annotatsiya: Mazkur maqolada biologiya darslarida o‘quvchilarning individual faoliyatini tashkil etishning pedagogik asoslari, umumiy o‘rta ta’limi muassasalarida biologiyani o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlar, biologiya darslarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: biologiya, individual faoliyat, axborot texnologiyalari, modulli ta’lim texnologiyasi, demokratlashtirish.

Kirish:

Biologiyani o‘qitishda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining hamma metodlaridan, modulli ta’lim texnologiyasining o‘quvchilarning kichik guruhlarda ishlashiga mo‘ljallangan modul dasturlaridan foydalanish shular jumlasiga kiradi. Biologiya darslarida o‘rganilayotgan mavzuning didaktik maqsadi, vazifalari, mohiyatidan kelib chiqqan shaklda o‘quvchilarning bilish faoliyati individual, kichik guruhlarda va yalpi holda tashkil qilish shakllaridan o‘z o‘rnida va samarali foydalanish tavsiya qilinadi. Shunday qilib, o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish, ushbu faoliyatni maqsadga muvofiq tashkil qilish, uni loyihalash, maqsadni amalga oshirish yo‘llarini belgilash, olingan natijani tahlil etish va baholash bosqichlaridan iborat bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

O‘qitish ishlarini tashkil qilishda o‘rta saviyali o‘quvchi nazarda tutiladi, o‘quvchilarning mustaqilligi e‘tibordan chetda qoladi, o‘quv faoliyati o‘qituvchi tarafidan boshqariladi. Shu tufayli o‘quvchilarni o‘z o‘quv faoliyatining to‘laqonli subyektiga aylantirish, pedagogik munosabatlarni insoniylashtirish va demokratlashtirish, o‘qitish samaradorligini orttirish maqsadida biologiyani o‘qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarurati tug‘ildi.

Biologiyani o‘rganishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning o‘quvchilarning o‘tgan mavzusi bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, hamda yangi mavzuni o‘rganish mobaynida lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Natijalar:

O‘quvchilarga ayni muayyan mavzular yuzasidan krossvordlar tuzish, kuzatish va tajribalar o‘tkazish, ma’ruza va referatlar, turli mavzularda o‘tkaziladigan tanlovlar

uchun materiallar tayyorlash shular jumlasidandir. O'quvchilarning bilish faoliyati individual shaklda tashkil qilinganda o'quvchilar o'quv materialini mustaqil o'zlashtiradilar, ularning aqliy takomillanishi, qiziqishi, ehtiyoji, iqtidori, bilimlarni o'zlashtirish darajasi hisobga olingan holda tuzilgan o'quv topshiriqlarini mustaqil bajaradi va o'z bilish faoliyatining sub'ektiga aylanadi.

Muhokama:

Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini individual tarzda tashkil qilish asosan darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham qo'llaniladi. Masalan, o'quvchilarning uy vazifasini bajarishida ularga yondashish imkoniyatlari mavjud. Ta'lim-tarbiya jarayonida darsda o'rganiladigan mavzuning mohiyati e'tiborga olingan holda darsda o'quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishlashi, o'quv bahslar tashkil qilish, aqliy hujum, didaktik o'yinlar, taqdimot, o'z-o'zini baholash, tashrif kabilardan foydalanish, masala va mashqlar yechishni yo'lga qo'yish o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi kerak.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'qituvchi biologik ta'lim samaradorligiga erishish va o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil qilish va boshqarishi uchun ta'lim mohiyatining tarkibiy qismlari va ularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish usullarini yaxshi bilishi zarur. Biologiya darsligida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtiradigan, mustaqil ishlashi va ijodiy fikr yuritish, o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilishi va o'z-o'zini baholash, mantiqiy fikr yuritish operatsiyalarini bajarishi sababli biologik bilimlarni ongli o'zlashtirish ko'nikmalarini egallashlariga zamin tayyorlangan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya ta'limi texnologiyalari. — T.: O'qituvchi, 2002.
2. Azimov va boshqalar. Biologiya. Metodik qo'llanma. — T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti. 2002.
3. Tolipova J.O., G'ofurov A. T. Umumiy biologiyani o'qitish metodikasi. Toshkent.: Sharq.- 2004.
4. G'ofurov A.T. va boshqalar. Biologiya Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darslik. – T.: “Sharq”, 2003.